

TA'LIM TIZIMIDA BOLALAR RIVOJLANISHIDAGI BAHONING IJTIMOYIY-PEDAGOGIK AHAMIYATI

*125-DMTT Direktori Ro'ziyeva Dilafuz Abdullayevna
Toshkent Shahar Yakkasaroy tumani*

Annotatsiya: Ushbu maqolada Ta'lim tizimida bolalar rivojlanishidagi Bahoning ijtimoiy-pedagogik ahamiyati haqida batafsil yoritilgan

Kalit so'zlar: etod, tarbiya, muloqot, kommunikativ, kreativlik, munosabat, krezis.

Maktabgacha yoshdagi bolalarning psixologik tarbiyasida ularga baho berish, rag'batlantirish nihoyatda muhim jarayondir. Ularga to'g'ri ta'lim va tarbiya berishda bahoning yuksaltiruvchi munosabati bugungi kunning eng dolzarb vazifalaridir. O'zbekiston mustaqilligining keyingi yillaridanoq mamlakatimizda maktabgacha ta'lim tashkiloti va bolalar masalalari kabi dolzarb vazifalarga katta e'tibor berib kelinmoqda. Jumladan bolalar rivojlanishidagi barcha jihatlarni keng qamrab olgan Prezidentimizning "Maktabgacha ta'lim va tarbiyaning davlat standartini tasdiqlash to'g'risida" Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 22-dekabrda 802-son qarori, "O'zbekiston Respublikasining ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlaishiga qo'yiladigan Davlat talablarini tasdiqlash hadqida"gi (O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2020-yil 4-dekabrda ro'yxatdan o'tkazildi.) buyrug'ini keltirishimiz mumkin. Bu kabi bir qancha chora va tadbirlar so'nggi yillarda ko'plab qabul qilinmoqda.

Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalar ta'limi va tarbiyasining muvaffaqiyati motivatsiyaga, stimullar (rag'batlar) mavjudligiga to'g'ridan-to'g'ri bog'liq bo'lishi bir qancha psixologik va pedagogik nazariyalardan yaxshi ma'lum hisoblanadi. Chunki bolalar ta'limi va tarbiyasida namoyon bo'ladigan motivlar va qiziqishlar rag'batlantirish va jazolash tizimiga olib keladi. Rag'batlantirish ijobiy hislatlarni vujudga keltirsa, jazolash salbiy hislatlarning paydo bo'lishiga to'sqinlik qiladi va biz kutgan natijani beradi. Bolalarga baho berish munosabati o'zida rag'batlantirish va jazolashni birlashtirgan pedagogik stimullar hisoblanadi: yaxshi baho rag'batlantiradi, yomon baho jazolash uchun xizmat qiladi. Shuni esda tutish lozim-ki, eng minimum baho ham, eng maksimum baho ham bolani rivojlantiruvchi vazifani bajarmaydi. «Men» tizimi – erta bolalikda (L.I Bojovich) paydo bo'luvchi markaziy hodisadir. Bola o'zini kattalardan ajratishni o'rganadi, o'ziga nisbatan mustaqil «men» sifatida munosabatda bo'la boshlaydi, ya'ni unda o'zini anglashning boshlang'ich shakli paydo bo'ladi.

Rivojlanishdagi muvaffaqiyatlar bola xulq-atvorini o'ziga xos tarzda o'zgartiradi. Kattalar avvalgidek yetakchi o'rin tutsa-da, bola o'z amaliy hayotining tor muhiti va u

qadar katta bo‘lmagan imkoniyatlari doirasida kattalar yordamisiz harakat qilishga intiladi. Yangi tendensiyalar bola faolligini («men o‘zim») kuchaytiradi va kattalar bilan yangi munosabatlarning paydo bo‘lishiga olib keladi. Bu davr tanqidiy davr («uch yosh krizisi») deb ataladi, ya’ni kattalar bolalar bilan munosabatda yangi qiyinchiliklarga duch kela boshlaydilar. Bunda bola o‘zining negativizmi va qaysarligi bilan bardosh berib bo‘lmas darajaga etishi mumkin.

Uch yosh krizisi o‘tkinchi hodisa, lekin uning natijasi – boshqalardan o‘zini ajrata bilish, boshqa odamlar bilan o‘zini taqqoslash bolaning psixik rivojlanishida muhim qadamdir. Kattalardek bo‘lishga intilish faqat o‘yin shaklidagina nisbatan to‘liq yechimini topishi mumkin (faqat o‘yinda bola do‘konga borishi, tushlik tayyorlashi, raketada kosmosga ucha olishi mumkin). Shuning uchun ham uch yosh krizisi bolaning o‘yin faoliyatiga o‘tishi bilan hal etiladi. Lekin bu krizis bola shaxsining ma’lum bir darajada rivojlanganligi va kattalar bajaradigan xatti-harakatlarni qila olmayotganligini anglash natijasi hisoblanadi. Krizis davrida yuzaga keladigan xususiyatlar iroda, layoqat va boshqa xususiyatlar uni shaxs bo‘lib shakllanishiga tayyorlaydi. O‘z-o‘zini anglash layoqati sekin – astalik bilan rivojlanib, avval u qanday bo‘lganini va kelajakda qanday bo‘lishini fikrlab ko‘rishga harakat qiladi. Bu esa bolalar beradigan “Men kichkina paytimda qanday bo‘lgan edim?”, “Men katta bo‘lganimda kim bo‘laman?” singari savollarda ko‘rinadi. Kelajak haqida fikr yuritib, bolalar kelgusida kuchli, jasur, aqlli va boshqa qimmatli insoniy fazilatlariga ega bo‘lishga harakat qiladilar.[3]

Bolada tengdoshlari bilan ma’lum bir munosabatlarning yuzaga kelishi, «bolalar jamiyati»ning shakllanishi maktabgacha yoshning muhim xususiyati bo‘lib hisoblanadi. Ayniqsa, ikkinchi signal sistemasi jadal rivojlanib, sensor idrok, ayniqsa, ko‘rish va eshitish orqali qabul qilish sezilarli rivojlanadi. Bolada oddiy majburiyatlar majmui paydo bo‘ladi, ongli ravishda rasm chizadi va musiqiy faoliyatda ishtirok eta boshlaydi. U unga qanday surat yoki musiqa yoqishini, qaysilari yoqmasligini aytishi mumkin. Maktabgacha yoshdagi bolaning boshqa odamlarga ichki pozisiyasi o‘z «men»i va o‘z harakatlari ahamiyatini tobora anglab borishi, kattalar dunyosiga, ularning faoliyati va o‘zaro munosabatiga katta qiziqishi bilan xarakterlanadi.

Mavjud hisob-kitoblar shuni ko‘rsatadiki, past va o‘rta daromadli mamlakatlardagi 5 yoshgacha bo‘lgan bolalarning 43 foizi rivojlanish potentsialiga erisha olmaslik xavfi ostidadir. Miya plastisitivligi va neyrogenenezning yuqori darajasi tufayli 0-5 yoshdan boshlab erta bolalik uzoq muddatli kognitiv va psixososyal rivojlanish uchun juda muhim davrdir.[2]

Bolalar bilan o‘ynash, o‘qish va qo‘shiq aytish kabi oddiy mashg‘ulotlar erta bolalikni rag‘batlantirishning (ECS) asosiy komponentlari hisoblanadi. ECS yosh bolalarning fikrlash, muloqot qilish va boshqalar bilan aloqa qilish qobiliyatini yaxshilashi mumkin. Biroq, ko‘plab bolalar ushbu muhim davrda yetarlicha rag‘batlantirmaydilar. Eng keng tarqalgan ECS dasturlaridan ba’zilari tarbiyachilarni

bolalar bilan o‘ynashga undashga qaratilgan: ko‘ngillilar yoki jamoat tibbiyot xodimlari o‘z uylarida g'amxo‘rlik qiluvchilarga tashrif buyurishadi yoki tibbiy klinikalarda, uylarda yoki boshqa jamoat joylarida guruh mashg'ulotlarini o‘tkazadilar. [7]

“11 ta past va o‘rta daromadli mamlakatlardan olingan 17 ta tasodifiy baholashni ko‘rib chiqish 1 0-3 yoshdagi bolalar bilan tarbiyachilarni ECSni qo‘llashga o‘rgatuvchi va rag‘batlantiradigan dasturlar bolalarning uy sharoitida o‘yin sifati va miqdorini yaxshilashi hamda bolalarning kognitiv qobiliyatlarini yaxshilashi mumkinligini aniqladi. Yamaykada o‘tkazilgan kichik miqyosdagi tadqiqot ishtirokchilarni 20 yil davomida kuzatishga muvaffaq bo‘ldi: u dastlabki yillarda uyda rag‘batlantirishning kuchayishi bilish, akademik yutuqlar, bandlik, ruhiy salomatlik va kattalar daromadida uzoq muddatli yutuqlarga olib kelishini aniqladi”[6].

Bolaning maktabda muvaffaqiyatli o‘qishi nafaqat uning aqliy va jismoniy tayyorgarligi, balki shaxsiy va ijtimoiy-psixologik tayyorgarligiga ham bog‘liq. Maktabga o‘qish uchun kelayotgan bola yangi ijtimoiy mavqeini - turli majburiyatlari va huquqlari bo‘lgan va unga turlitalablar qo‘yiladigan - o‘quvchi mavqeini olish uchun tayyor bo‘lmog‘i lozim. Katta bog‘cha yoshdagi bolalar asosan maktabda o‘qish uchun ehtiyoj sezadilar, lekin bu xohish va ehtiyoj motivi turlicha bo‘lishi mumkin. “Menga chiroyli forma va daftar, qalam, ruchkalar sotib olibberishadi”, “Maktabda o‘rtoqlarim ko‘p bo‘ladi va men ular bilan mazza qilib o‘ynayman”, “Maktabda uxlatishmaydi” kabi. Maktab tashqi atributlari shubhasiz bolalarni juda qiziqtiradi, lekin bu maktabda muvaffaqiyatli o‘qish uchun asosiy motiv bo‘la olmaydi. “Men otamga o‘xshagan bo‘lishim uchun o‘qishim kerak”, “Yozishni juda yaxshi ko‘raman”, “O‘qishni o‘rganaman”, “Maktabda qiyin misollarni yechishni o‘rganaman” ushbu xohish va harakat bolaning maktabda muvaffaqiyatli o‘qishi uchun tabiiy ravishda asos bo‘la oladi. Bolaning endi o‘zini katta bo‘lganini, bog‘cha bolasi emas, balki ma‘lum bir majburiyatlari bor bo‘lgan o‘quvchi bo‘lishini anglashi, jiddiy faoliyat bilan shug‘ullanayotganligini bilishi nihoyatda muhim. Bolaning maktabga borishini istamasligi ham salbiy holat hisoblanadi. Maktabga shaxsiy va ijtimoiy-psixologik tayyorgarlik bolalarda tengdoshlari, o‘qituvchilari bilan munosabatga kirisha olish xususiyatini shakllantirishni ham o‘z ichiga oladi. Har bir bola jamoaga qo‘shila olishi, ular bilan hamkorlikda harakat qila olishi, ba’zi vaziyatlarda ularga yon bosib, boshqa vaziyatlarda yon bosmaslikka erisha olishi zarur. Ushbu xususiyatlar bolaning maktabdagi yangi sharoitlarga tez moslasha olishini ta‘minlab beradi. 6-7 yoshli bolalar o‘qishdagi asosiy qiyinchilik shundan iboratki, ko‘pincha bu yoshdagi bolalar o‘qituvchini uzoq vaqt davomida eshita olmaydilar. O‘quv harakatlariga uzoq vaqt diqqatlarini qarata olmaydilar. Bunga sabab faqat shu yoshdagi bolalarda ixtiyoriy diqqatning rivojlanmaganligida emas, balki bolaning kattalar bilan muloqotga kirisha olishi xususiyatiga ham to‘la bog‘liq. Chunki shu xususiyati rivojlangan bolalar erkin

muloqotga kirisha oladilar, qiziqtirgan narsalar haqida so‘ray oladilar. Natijada ularning o‘qishga bo‘lgan qiziqishlari ortadi va o‘qituvchi gapirayotgan narsalarni diqqat bilan uzoq vaqt eshita oladilar. Demak, bolaning maktabga tez moslashishi vamuvaffaqiyatli o‘qishida shaxsiy va ijtimoiy psixologik tayyorgarligining ham ahamiyati juda katta.

“Men” konsepsiyasi yoki o‘z-o‘zini anglash va baholash tushunchasi:

Kattalar yordamida o‘z kamchiliklarini bartaraf qilish, jamoada o‘zini tuta bilish;

O‘zini, o‘z mavqeini va kamchiligini anglashga intilish, o‘zlarini kattalarning baholashi bilan solishtirish, o‘z familiyasini, ismini, yoshini, manzilini, oila a‘zolarini bilish, boshqalarning xohishini hurmat qilish. O‘zlari to‘g‘risida tasavvurga ega bo‘lish, o‘zining shaxsiy ahloqiy sifatlarini baholay va angalay olish, qaysi shaharda yashaydi, o‘zi to‘g‘risida, boshqa bolalar to‘g‘risidagi ma‘lumot bilan almasha olish. O‘zini hurmat qilish, o‘z qadr-qimmatini bilish, o‘zini tanqidiy baholash, o‘z milliy an‘analarini va madaniy qadriyatlarini bilish, ular bilan mag‘rurlana olish (milliy kiyim, o‘yin, urf-odatini hamda tarixini bilishga intiladi).

Hissiy ifodalash. Kattalarga va tengdoshlariga nisbatan o‘zaro hurmat bilan qarash.

Saxiylik, yaxshilik va rahmdillik ko‘rsatish, o‘z kayfiyati va boshqalarning kayfiyatini tushunish.

Kattalar va tengdoshlariga samimiy munosabat bildirish.

O‘z hissiyotlarini so‘z bilan ifodalay olish, o‘zini va boshqalarning holatlarini taqqoslash va baholash.

Katta maktabgacha yoshdagi bolaning guruh umumiy manfaatlarni his etishi, boshqalarning huquqlari bilan hisoblashishi, umumiy yutuqlardan quvonishi, yordam ko‘rsatishi, umum foydasi uchun mehnat qilishi, ijtimoiy mulkka o‘yinchoqlar, kitoblar, qo‘llanmalar, qo‘g‘irchoqlarga ehtiyotkorlik bilan munosabatda bo‘lishida o‘z ifodasini topadi. Bolalarda jamoatchilikni tarbiyalash individuallikning rivojlanishini ko‘zda tutadi: guruhda bolaning tashabbusi rag‘batlantiriladi, qizquvchanlik, zehni o‘tkirlik, individual qiziqishlar, did, mayllar qo‘llab-quvvatlanadi. guruh o‘yinlarni rag‘batlantirish individual o‘yinlarga yordam berish bilan qo‘shib olib boriladi.

Tarbiyachi ish boshlanishidan oldin bolalar bilan suhbatlanib, umumiy mehnatning va har bir bola faoliyatinnig muhimligini ta’kidlaydi. Pedagog ishning taqsimlanishi masalalarini muhokama qilar ekan, bir-birini xafa qilmasdan, navbatchilarga talabchanlikni ham murakkablashtirish imkonini beradi.

Maktabgacha ta’lim tashkilotilari bolalarini axloqiy tarbiyalash asosiy bosqichlaridan biridir. Bu davrda bolalarda axloqiy fazilatlar tarkib topib boradi. Maktabgacha tayyorlov guruh bolalarida irodaviy sifatlar shakllana boradi, xarakter xislatlari barqarorlashadi, bolada mustaqillikka nisbatan intilish tuyg‘usi paydo

bo‘ladi. Shuningdek, tayyorlov guruhi bilan bola maktabda o‘qishga tayyorgarlik ko‘ra boshlaydi.

Bu davrda maktabgacha yoshidagi bolalar o‘z ko‘chalariga ishonch hosil bo‘lsa, ular muvaffaqiyat, faollikni rivojlantirishga ta’sir ko‘rsatadi. Tayyorlov guruhi bolalarida kattalar va tengdoshlar bilan muloqot jarayonida madaniy va uyushgan xulq-atvor ko‘nikmalari va odatlarning shakllanishi davom etadi. Bolalar xulq-atvoriga ularning tengdoshlari bilan munosabatlari murakkablashadi. Tarbiyachi Maktabgacha ta’lim tashkilotisi qoidalarining ongli va majburiy, bolalarda o‘z-o‘ziga xizmat ko‘rsatish, tashqi ko‘rinishi, harakatlari, predmetlarga munosabati, tejamkorlik, buyumlarini tartibga keltirish madaniyatini shakllantirishga, kattalar va tengdoshlari bilan munosabatga xushmuomalalik madaniyatini tarbiyalashga alohida e’tibor berishadi.

MTT psixologlari ish ma’lumotlari va metodikalari asosida bola shaxsi o‘zini-o‘zi anglash komponentlarining shakllanish darajasini aniqlashlari hamda ularga individual yondashib tegishli ko‘rsatmalar berishlari lozim.

3-5 yoshli bolalarda o‘z-o‘zini anglashda o‘ziga va boshqalarga nisbatan munosabatni baholash asosiy ko‘rsatgich hisoblanadi. Bolaning o‘zining kelajakdagi qiyofasi haqida ijobiy tasavvuri birinchi marotaba bolaning o‘ziga o‘zining kamchiliklariga nisbatan tanqidiy jihatidan munosabatda bo‘lishga va kattalar yordamida bu kamchiliklarni bartaraf qilishga yordam beradi.

Bolaning o‘zining kelajakdagi qiyofasi haqida ijobiy tasavvuri birinchi marotaba bolaning o‘ziga o‘zining kamchiliklariga nisbatan tanqidiy jihatidan munosabatda bo‘lishga va kattalar yordamida bu kamchiliklarni bartaraf qilishga harakat qilishadi.

Vaholanki o‘z-o‘zini baholash maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishida o‘ta muhim ahamiyatga ega. Baholash va rag‘bat A.S. Makarenkoning ta’kidlashicha, tarbiya - to‘g‘ri xatti-harakatga o‘rgatuvchi mashqdan boshqa narsa emas. Baholash - bolalar hayotini oqilona bir maqsadga qaratiladi, har taraflama faoliyatini jamiyatda qabul qilingan normalar va qoidalarga muvofiq, tashkil etishdir. Rag‘bat muayyan harakatlar va ishlarni ko‘p marta takrorlashni o‘z ichiga oladi.[57]

Bola uchun baholash - ongli ijodiy jarayondir. Baholash natijasida malaka va ko‘nikmalar, odatlar, yangi bilimlar hosil qilinadi, aqliy qobiliyat rivojlantiriladi.

—Rag‘bat sinchkovlik va qiziquvchanlik olovini o‘t oldiruvchi uchqundir", - degan V.A. Suxomlinskiy. Tarbiyalanuvchilar hayotida, ayniqsa boshlang‘ich tarbiyalanuvchi bolalarning hayotida baholash psixologiyasi faoliyati katta o‘rin tutadi.

"Bola uchun baholash, rag‘batlantirish – voqelik, - deb yozgan edi K.D. Ushinskiy, - binobarin, uning tevarak atrofidagi voqelikdan ko‘ra qiziqarliroq voqelikdir. U bolaga, xususan tushunarli bo‘lgani uchun qiziqdir, rag‘bat bolaga shuning uchun tushunarli, unda bolaning o‘zi yaratgan mehnatining mahsuli bor".

Bola baholash jarayonida qanday bo‘lsa, u katta bo‘lganida ishda ham ko‘p hollarda shunday bo‘ladi, deb bildirgan.

Makarenkoning so‘zlarida katta pedagogik mazmun bor. Baholash - bolalar jamosini jipslashtiradigan va rivojlantiradigan faoliyat turlaridan biridir. Bolalar baholanishiga e‘tibor bilan razm solinsa, ularning ko‘zlarida kattalar dunyosi qanday aks etishini qanday bilib olayotganliklarini ko‘rish mumkin.[57]

Bola uchun baholash - ongli, ijodiy jarayondir. Baholar, rag‘batlar natijasida malaka va ko‘nikmalar, odatlar, (tajriba) bilimlar hosil qilinadi, aqliy qobiliyat rivojlantiriladi. K.D. Ushinskiy tarbiyaning vazifasi xarakterni shakllantirishdan hamda hayotda hosil qilingan e‘tiqod va odatlardan tarkib toptirish deb hisoblagan. Odat, Ushinskiyning fikricha, e‘tiqodni maylga aylantiradigan va fikrni ishga aylantiradigan jarayondir. Odat - odamning ikkinchi tabiati, lekin tarbiya san‘atiga bo‘ysunadigan tabiatdir.

Avestoda esa «Bolalar yoshlik paytlaridanoq daraxt ko‘chati o‘tqazish, uy-ro‘zg‘or qurilmalarini yasash, yerga ishlov berish va chorva bilan shug‘ullanishga o‘rgatish va buning uchun rag‘batlantirilishi kerakligini» - ta‘kidlagan. Yaxshilik va ezgulik yaratish uchun kishi mehnat qilishi, o‘z qo‘llari bilan moddiy noz-ne‘matlar yaratishi va buning uchun baholanishi lozim.

Bolalarga baholash quvonchi, o‘qishdagi yutuq quvonchini berish ular qalbida faxrlanish hissini, o‘z izzat-nafsi hissini uyg‘otish – bu tarbiyaning eng asosiy birinchi vazifasidir, degan Suxomlinskiy.

Shunga qaramasdan bunday tajribani o‘tkaza olish individual jarayon, u muayyan qonunlarga bo‘ysunish kerakli demakdir:

1. Shaxsni shakllantirish va baholash uchun asos sifatida ta‘limni tan olish; Ta‘lim - kerakli shaxsiy parametrlarni shakllantirish uchun shaxsiy xususiyatlarga fortsk asosidagi ta‘siri. Shaxsda sodir bo‘ladigan o‘zgarishlar tarbiyaning natijasi bo‘ladi va baholanishga olib keladi. Ta‘lim jarayonisiz, ma‘naviy o‘zgarishlar, urf-odatlarga rioya qilish, xulq-atvor va baholash normalarini ishlab chiqish, ya‘ni shaxsning sifatli o‘zgarishi mumkin emas.

2. Bolani o‘quv va o‘quv jarayoni mavzusi bilan tan olish va baholash; Bolaning mustaqil faoliyati dunyoga bo‘lgan munosabatning xususiyatlaridan biridir. Bu shuni anglatadiki, faqat shaxsiy istak, biron bir harakatning shaxsiy istagi ijobiy natijaga olib keladi va ijobiy rag‘bat hosil qiladi. Shaxsiy faoliyatsiz, shaxsiyatni shakllantirish va baholash jarayoni juda samarasiz. Shu sababli, rivojlanish ob‘ekti sifatida insonning rivojlanayotgan shaxsiga bo‘lgan munosabat kerakli natijalarga, baholarga olib kelmaydi. O‘qituvchi bola faoliyatini shunday xohlaganiga ishonishi kerakligini yodda tutishi kerak. O‘qituvchisining roli, noyob, faqat tashkiliy sharoitda va bolaning mustaqil faoliyat natijalarini nazorat qilishda hamda baholashda.

3. Bolaning motiv va maishiy sektorini kiritish;

Har qanday mavjudotning hayotiy faoliyatida ehtiyoj katta rol o‘ynaydi. Tabiiy ehtiyojlarga qo‘shimcha ravishda ijtimoiy ahamiyatga ega. Muayyan ijtimoiy-iqtisodiy aloqalarning kelib chiqishi, manfaatlar va ichki hazmni shakllantirgan. Shaxsning sifatini shakllantirgan tangliklarning qaramligini hisobga olgan holda, motivlarni amaliy ravishda amalga oshirish uchun asos bu baholashdir.

Maktabgacha ta’lim tashkilotida bolalarda to‘g‘ri baholash, rag‘batlantirish orqali intellektini oshirish, bolalarning ta’lim-tarbiya jarayoniga faol ishtirokini ta’minlash, bolalarni to‘g‘ri baholash o‘id turli amaliy bo‘lgan muammolarni o‘rganish va ularni bartaraf etish usullarni, texnologiyalarni, ilmiy-metodologik usullarni yaratish. Bolalar rivojlanishida baho munosabati asosida o‘rgatish metodlardan foydalanib ta’lim jarayonlarini tashkil etish. Tadqiqot natijalari va xulosalaridan maktabgacha ta’lim tashkilotlarining uslubchi, tarbiyachilari, pedagogika oliy ta’lim muassasalari professor-o‘qituvchilari, dastur va darsliklar mualliflari, tadqiqotchilar, yosh mutaxassislar o‘z faoliyatlarini takomillashtirishda samarali foydalanishlari mumkin. Yuqoridagi barcha olimlarning nazariyalari bolalarda baho munosabatining nazariy va amaliy jihatlarini, o‘z asarlarida yoritib o‘tishgan.

Bolalarni tarbiyalashda rag‘batlantirishning o‘rni katta. Rag‘batlantirish bolaning ruhini, kayfiyatini ko‘taradi, ularni tetiklantiradi, g‘ayratiga g‘ayrat qo‘shadi, o‘z kuchiga ishonchini orttiradi. Maktabgacha ta’lim tajribasida rag‘batlantirishning turli shakllari qo‘llaniladi: ma’qullash, ko‘ngilni ko‘tarish, ishonch bildirish, maqtash, yozma tashakkur, mukofotlash kabi turlari samarali.

Bundan tashqari jamoada rag‘batlantirish shakllari ham mavjud. Bularga: ma’qullash: boshni qimirlatib ma’qullash, yuz va qo‘l harakatlari bilan "balli", "barakalla", "rahmat", "juda soz" kabi so‘zlar orqali ham rag‘batlantirilsa maktabgacha yosh uchun mahsuldor bo‘ladi.

Ko‘ngilni ko‘tarish, dalda berish ba’zan tarbiyaviy faoliyatda yoki uyda muvaffaqiyatsizlikka uchragan paytda bolalar ko‘nglini ko‘tarish va dalda berish kerak bo‘ladi. Bunday vaziyatda esa ishonch bildirish. Bolani kuchi yetadigan biror vazifani topshirish va uni rag‘batlantirish, ko‘nglini ko‘tarish yo‘llarini qo‘llash kerak.

«Maqtash. Kishini maqtash juda foydali»- deydi M. Gorkiy, - chunki bu narsa uning o‘ziga bo‘lgan hurmatini oshiradi, o‘z kuchiga ishonchni orttiradi.[43]

Bu bolani nimaga undashi mumkin?

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, aslida, bolalar uchun ma’qullash shakllari mavjud, bu aniq vaziyatlarga nisbatan samarali ishlamoqda. Psixologlar maqtashning qanday usullari tavsiya etishadi? Oddiy ta’sir ko‘rsatadigan, keng tarqalgan va rag‘batlantirishning usuli bu dalda hisoblanadi. Oddiy qilib aytganda, bolani maqtashning usuli uning yaxshi xatti-harakatlari, yaxshi xulqi uchun ota-onalari tomonidan qo‘llab-quvvatlanishlari nazarda tutiladi.

FOYDALANILADIGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. "Maktabgacha pedagogika" jurnali / Ota-ona va bola munosabatlari masalasida oilaviy kompetensiyani psixologik qo'llab-quvvatlash. Lebedeva N. B. 2008 yil oktyabr, 55 b.
2. "Halqa" jurnali / Onam har doim to'g'ri. Kuzmishina T. 2007 yil № 5, 12s.
3. Qayumova N. Maktabgacha pedagogika.
4. Hasanboyeva O, Sariboev X, Hasanboev J, Niyazov T, Usmonboeva M «Pedagogika» (-T.: Fan, 2006)
5. Yusupova P «Maktabgacha pedagogika» (-T.: O'qituvchi,1996)
6. Loginova V.I. va Samorukova P.G «Maktabgacha tarbiya pedagogikasi» (-T.: O'qituvchi, 1991)
7. Shodmonova Sh «Maktabgacha pedagogika» (-T.: Fan va texnologiya, 2005) kabi darslik va o'quv qo'llanma.
8. Mirziyoyev Sh. M. Ta'lim-tarbiya tizimi: taraqqiyotning yangi bosqichi muhokama qilindi –T:Yangi O'zbekiston. 30 Oktabr 2020
9. Avloniy. “Turkiy guliston yoxud axloq”.-Toshkent, O'qituvchi,1992y.
10. А.С.Мюренью «Хяожественная литература о воспитании детейю»\\Пед. соч.М 1986ю Т.7.30-бет.
11. Karimov I.A. “Barkamol avlod orzusi”.-T:O'zbekiston Milliy insklopediyasi Davlat ilmiy nashriyoti, 2000y
12. “Pedagogika” fanidan izohli lug'at - T, 2010 534-535 betlar.
13. Beruniy. Ruhiyat va ta'lim-tarbiya haqida. -T., 1992.
14. Mavlonova R, To'rayeva O, Xoliqberdiyev K. Pedagogika. -T.: O'qituvchi,2001.